



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Qurbanova Marg'uba

O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY
OMMALASHTIRISH VOSITALARI 13-15

Polvanov Azim Kuchkarovich

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING
MANBALARDА YORITILISHI 16-21

Esnazarova Zulfiya Baltashovna

QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI
(1873 – 1924) 22-27

Axmedov Shaxzod Farxon o'g'li

O'ZBEKİSTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN
(1991 – 2017-yillar) 28-36

Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid

IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR
XODIMLARNING ISHTIROKI 37-43

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li

XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI 44-47

Asadova Ra'no Baymanovna

INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN
(CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) 48-52

Esanova Nilufar

1991-2024 YILLARDA O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING SANOAT
SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR
(HINDİSTON VA XİTOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) 53-56

Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li

O'ZBEK XONLIKLERİ VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON
O'RТАSIDAGI SIYOSIY ALOQALAR 57-64

Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li

HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI
AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA 65-70

Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT
SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI 71-74

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMİR
YO'LİNİNG QURILISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI 75-80

O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li

ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKİSTON SANOATI 81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov</i>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH	89-98
<i>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi</i>	
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:	
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI?.....	99-104
<i>Xakkulov Akbar Uralovich</i>	
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI	105-111
<i>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:	
AVTOKRATIK RAHBARLAR	112-117
<i>Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna</i>	
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI	
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	118-125
<i>Yangiboyev Rustam Berdiyarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	126-131
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN	
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK	
XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	132-143
<i>Eshqobilova Nigoraxon, Qurbanova Safiyabonu</i>	
DAVLAT BUDGETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING	
NAZARIY ASOSLARI	144-150
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING	
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI	151-159
<i>Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz</i>	
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY	
IN UZBEKISTAN	160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ahmedova Dilrabo</i>	
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY	
JARAYONLARNING TA'SIRI	173-177
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING	
FALSAFIY TAHЛИLI	178-184
<i>Kurbanaliyev Ural Xatamovich</i>	
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH	
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI	185-189
<i>Soipova Mayjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI	190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i>	
YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i>	
O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i>	
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i>	
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i>	
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i>	
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i>	
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i>	
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i>	
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i>	
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANТИRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i>	
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i>	
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanova</i>	
A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i>	
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i>	
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i>	
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoj</i>	
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI T AHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i>	
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejvaliyevna</i>	
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i>	
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i>	
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i>	
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i>	
BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i>	
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyorova Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING
PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ
ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARQ'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO
MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'YI INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):
MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI
TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKİSTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ
СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ
В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'YI INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmira

TALABALARDA TAHLILII FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMI LI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS
FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i>	
GLOBALASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM	
YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSALARIDA O'QUVCHILARGA	
AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i>	
TEXNOLOGIYA DARSALARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL	
ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Abdullaeva Dilgora Ulugbekovna</i>	
AKTUAL'NYIE PROBLEMY PREPODABANIIA PRAVOVYX DISCIPLIN	
W TEKHICHESKIH VUZAX	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA	
RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i>	
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS	
IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i>	
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIIYASINI OSHIRISH:	
GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazliddinov Muhammadali</i>	
SUN'YI INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI	
ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI	
MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN	
ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV	
METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART	
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i>	
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI	
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY	
YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI	
SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI(PIRLS)GA	
TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT	
TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i>	
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025**Accepted:** 1 May 2025**Published:** 10 May 2025*Article / Original Paper***PARTICIPATION OF ANDIJAN LEADERS ON THE BATTLEGROUNDS OF THE SECOND WORLD WAR****Mamajonov Alisher**

candidate of historical sciences, professor

Professor of the Department of "World History" of AndSU

Alisherov Abduvokhid Alisherovich

Senior Lecturer of Andijan State University

Abstract. The article, based on archival documents and various sources, describes the Second World War - the most terrible and terrible event of the 20th century in the history of all mankind, which brought severe calamities, the mobilization of leading workers from Andijan for the Second World War, examples of heroism shown by them in heavy battles, courage and bravery.

Keywords: terrible event, world war, battlefield, mobilization, tragedy, difficult years of trial, heroism, courage, resilience.

IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARNING ISHTIROKI**Mamajonov Alisher**

tarix fanlari nomzodi, professor

AndDU "Jahon tarixi" kafedrasi professori

Alisherov Abduvohid Alisherovich

Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Ikkinci jahon urushi – butun insoniyat tarixida XX asrning eng dahshatli va mudhish voqeasi bo'lib, og'ir musibatlar keltirgani, jahon urushiga andijonlik rahbar xodimlarning safarbar etilishi, og'ir janglardagi ularning ko'rsatgan qahramonlik namunalari, mardligi va jasorati arxiv hujjatlari hamda turli manbalarga tayangan holda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mudhish voqeasi, jahon urushi, janggoh, safarbarlik, fofia, og'ir sinovli yillar, qahramonlik, jasorat, matonat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N05>

Kirish. Ikkinci jahon urushi – butun insoniyat tarixidagi XX asrning eng dahshatli va mudhish voqeasi bo'ldi. 1939-yilning 1-sentyabr sanasida Gitlerchi Germaniyaning Polshaga hujumi bilan Ikkinci jahon urushi alanga oldi. Polsha davlati bu zorbaga qarshi tura olmadidi. "Mossiskiyning pan hukumati vayron bo'lib, qochishga tushdi. 7-sentyabrdan Polsha armiyasining bosh qo'mondoni Ridze Smiglyi ham Varshavani tark etdi".[1; 14-b.]

Oradan hech qancha vaqt o'tmasdan 17-sentyabr kuni Sovet Ittifoqi "G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorusiyani qutqarish" degan soxta vaj bilan Polshaga hujum qildi. Sovetlar ikki oydan keyin Finlyandiyaga qarshi urush e'lon qildi. 1940-yilning bahorida Litva, Latviya, Estoniyaga

qo'shin kiritib, "Xalqning xohishi bilan" degan yolg'on bahona ostida ularni o'z tarkibiga qo'shib oldi. So'ogra Moldaviya hamda Ruminiyaning shimoliy yerlari ham bosib olindi. [2; 1-b.]

Ikkinci jahon urushi jahoning 61 mamlakatini, Yer shari aholisining 80 foizini ya'ni 1,7 milliard kishini o'z girdobiga tortdi. Ikkinci jahon urushi yakunlanganiga ham mana 80 yil to'ldi. Qariyb ellik million insonning umriga nuqta qo'ygan bu vayronkor urush borasidagi tahlillar hamon davom etmoqda. Yaqin davrlargacha biz faqat kommunistik rejim taqdim etgan qarashlar doirasida cheklangan edik. Unga muvofiq, urush olovini yoqqanlar – Gitler Germaniyasi, uni qo'llab-quvvatlaganlar Angliya, Fransiya, urushdan eng ko'p jabr ko'rgan esa Sovet Ittifoqi edi. Mazkur urushda O'zbekistondan ikki millionga yaqin kishilar qatnashdilar. Shu sababli, bugungi kunda, erkin davlat a'zolari sifatida o'zimiz ham Ikkinci jahon urushi haqida mustaqil mulohazalar bildira olamiz.

Ikkinci jahon urushining boshlanishi butun insoniyat taqdiriga xavf solgani kabi, bu urush o'zbekistonliklar uchun ham og'ir sinovli yillar bo'ldi.

"O'zbekiston aholisi sovet hokimiyyati yoki tuzumini emas, balki fashizmning insoniyat boshiga qanday talafotlar yetkazayotganligini, uning insoniyat kushandasini ekanligini anglab yetganligi tufayli fashizmga qarshi kurashga otlandi".[3;197-b.]

Aynan o'sha og'ir urush davrini boshidan kechirgan insonlarning so'zlariga qaraganda, xalq kommunistik tuzumni asrash uchun emas, balki fashizmning yo'q qilinishini istardi, chunki ular bu vaboning insoniyat uchun qanchalik dahshatli ekanligini yurakdan his qilishgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevraldag'i qarorida ta'kidlanganidek, "Mamlakatimizda 9-may – Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatan ravnaqi, taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e'tibor va chuqur ehtirom ko'rsatish, shuningdek mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug'lash yurtimizda oliyjanob qadriyatga aylangan.

Xalqimizning Vatan himoyasi yo'lidagi yuksak mardlik va qahramonliklari barcha avlodlar uchun namuna va ibrat maktabi vazifasini bajarib kelmoqda. Xususan, Ikkinci jahon urushiga o'zbekistonliklarning ikki millionga yaqini safarbar etilib, shundan 538 ming nafardan ortig'i jang maydonlarida qahramonlarcha halok bo'lgan, 158 ming nafardan ortig'i bedarak yo'qolgan, mustaqillik yillarida 200 nafarga yaqin harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligi yo'lida o'z jonini fido qilganlar.

Biz tinchlik va mustaqillik uchun o'z jonini ayamagan ota-bobolarimiz va mard o'g'lolarimizning ulkan jasorati, matonati hamda fidoyiliklarini yuragimizda abadiy saqlaymiz.

Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga puxta tayyorgarlik ko'rish, uni yuksak darajada o'tkazish, O'zbekiston xalqining tarixiy qahramonligi, fidokorona mehnatini ulug'lash, yosh avlodni ona Vatanga sadoqatli, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylashga qodir insonlar etib tarbiyalash maqsadida: "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida o'tkaziladigan tadbirlar to'g'risida"gi taklifi biz tarixchilarni ikkinchi jahon urushi bo'yicha arxivlarda saqlanayotgan iste'molga kirmagan mavjud manbalarni yana bir bor qayta o'rganishga chorlaydi. [4; 2-b.]

O'zbekiston Sovet Ittifoqining urush iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega edi. Respublika frontga jangchi va kerakli narsalarni jo'natuvchi, muhim xom-ashyo, har xil urush texnikasi, qurol-yarog', o'q-dori va aslahalar yetkazib beruvchi asosiy mintaqasi.

Andijonliklar bir tan, bir jon bo'lib fashistlar bosib olgan hududlarni bosqinchilardan ozod qilishda, Yevropani, aslida butun insoniyatni fashizm balosidan ozod qilish va saqlashda faol ishtirok etdilar. Urushning birinchi kunlaridanoq Andijon yoshlaridan 9 000 nafari janggohga jo'nab ketgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Andijon viloyatidan hammasi bo'lib 97 ming kishi urushga safarbar qilinganligi [5;320-b.] to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, andijonliklar haqida o'tgan asrning 90-yillarida tadqiqotchi M.Rahimov tomonidan "Andijonlik o'n bahodir" nomli lavha tayyorlanib, unda o'n nafar andijonlik qahramonlarning janggohlarda ko'rsatgan jangovarlik jasorati va matonati yoritib berilgan, R.Shamsutdinov Vatan tarixi (Andijon: Meros, 1998-yil) nomli kitobida urush ishtirokchilari to'g'risida umumiyligi ma'lumotlar berilgan, R.Shamsutdinov "Buyuk g'alabada Andijonliklar hissasi" (//Andijonnomma – 2017-yil 3-may sonida) nomli maqolasida bu jarayonga qisqacha to'xtaladi, N.Karimov Ikkinci jahon urushining boshlanishi. Urush qurbanlari [urush arafasidagi tarixiy sharoit // Vodiynoma-2019. № 2] deb atalgan maqola bilan chiqqan, A.Aminov "Andijonlik dovyurak uchuvchi" [Ikkinci jahon urushi qatnashchisi A.Muhiddinov haqida // Kommunist.1988-yil 3-yanvar sonida], N.Rahimov Marhamat farzandlari (Andijon, 1996-yil), B.Supurgibekov. "Jasorat zamini" [Sovet Ittifoqi Qahramoni Qo'chqor Turdiev xotirasiga bag'ishlanadi Andijon: Andijon matbaa, 1995-yil] kabi chop etilgan qator maqola va kitoblarda mualliflar andijonliklarning Ikkinci jahon urushi janglaridagi ishtiroki xotirlansa-da, lekin maqoladagi singari shaxslarning alohida manbalarga to'xtalmaganligi bilan e'tiborga loyiqa.

Muhokama va natijalar. Yuqoridagilardan kelib chiqib o'rganilgan ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlar hamda Andijon viloyati arxivlarida saqlanib kelinayotgan manbalarga asoslangan holda ushbu maqolani siz aziz mushtariylarga havola etmoqdamiz. Andijonlik ikkinchi jahon urushi ishtirokchilaridan biri Marhamatlik To'xtasin Mirzayev edi. U 1913-yili Marhamatda kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan, millati bo'yicha o'zbek, ma'lumotiga ko'ra o'rta, partiyasiz. Urushga borgunga qadar 1939-1941-yillarda Marhamat tumanidagi 2-mashina traktor stansiyasi(MTS)da mexanizator bo'lgan. 1941-yili Marhamat tumanidan armiyaga olingan. 1941-1943-yillarda 30-gvardiyachi havo-desant polki 4-rotasida bo'lim komandiri, gvardiyachi serjant bo'lgan [6;126-127-b.]. Uning qahramonlik xotiralaridan ayrim satrlarni e'tiboringizga havola etamiz. "Sovet jangchilari Dnepr uchun olib borgan janglarda daryoni kechib o'tish yo'llarini qidira boshladi. Shunda Marhamatning Russkoe selosidan bo'lgan To'xtasin Mirzaev xizmat qilayotgan gvardiyachi 30-o'qchi havo-desant polki bu borada muhim operatsiyalar o'tkazdi. Polknинг 4-rotasi daryoni kechib o'tib, o'ng sohildagi dushman mudofaasini egallash haqida jangovar buyruq oladi. U o'z bo'linmasi bilan daryoni kechib o'ta boshladi. Buni sezgan dushman ularni o'qqa tutdi. Ular chaqqonlik bilan harakat qilib daryo sohiliga chiqib olib, avtomat bilan o'n besh nafar nemis jangchisini tilka-pora qildi va dushman pulemyotini egallab oldi... uning balandlikni egallashda ko'rsatgan qahramonligi quroldosh do'stlari yodida umrbod saqlanib qoldi. Uning o'zi o'sha jangda qirq nafar nemis ofitseri va jangchisini qirib tashladi. Umuman desantchilar xizmat qilgan 30-o'qchi havo-desant polki ommaviy qahramonlik namunalarini ko'rsatdi. Dnepr uchun olib borilgan keyingi janglardan birida daydi o'q uni safdan chiqardi.

Polk komandirining Mukofotlash varaqasida qisqa yozuvi paydo bo'ldi: unda "To'xtasin Mirzaev Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga taqdim etishga loyiq". Shunga binoan SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1943-yil 20-dekabrdagi Farmoniga asosan unga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi" [7; 8-9-b.].

1923-yilning 5-yanvar kuni O'zgan (Qirg'iziston)da tug'ilgan Sulgi Lutfullin millati bo'yicha o'zbek (ayrim manbalarda uyg'ur ham deb yuritiladi), ma'lumotiga ko'ra o'rta. O'rta maktabni tugatgach, xalq sudida sud ijrochisi bo'lib ishlagan.

1942-yil mart oyida Andijon shahar harbiy komissariati tomonidan harbiy xizmatga chaqirilgan va o'sha yilning aprel oyidan janggohga kirgan. 1944-yilning avgust oyiga kelib katta serjant Sulgi Lutfullin 1-Ukraina janggohining 13-armiyasi 493-tankka qarshi qiruvchi artilleriya polkida komandirlik qilgan. Polshani ozod etishda qahramonlik ko'rsatgan.

U 1-Ukraina frontining Polsha hududidagi Lvov-Sandomir va Sandomir-Sileziya hujum operatsiyalari davomida Visla daryosida plasdarmni kengaytirish uchun bo'lgan janglarda, Oder daryosini kechib o'tishda va Oder plasdarmini kengaytirish uchun bo'lgan janglarda alohida ajralib turdi.

1944-yil 18-avgustda Visla daryosidagi Sandomir plasdarmini kengaytirish uchun bo'lib o'tgan jangda (Polsha) uning to'pi 12 ta dushman tanklari va piyoda avtomatchilar desanti tomonidan qurshovga olinganiga qaramay, dushmanning sakkiz marta qilgan hujumini muvaffaqiyatlari qaytarib, 5 ta tankini yo'q qilgan va o'z jangchilarini qurshovdan muvaffaqiyatlari olib chiqqan. 1945-yil 29-yanvarda Oder daryosining Shtayna shahri janubidan (hozirgi Ssinava) kesib o'tishda birinchilardan bo'lib Oderni o'z to'pi bilan oshib o'tdi. 1945-yil 29-30-yanvar kunlari Ssinava shahrining janubi-g'arbiy qismidagi Noydorf va Gertsogsvald (hozirgi Nemstuv) aholi punktlari yaqinidagi bo'lib o'tgan janglarda uning hisobida 7 ta tank va 1 ta bronetransportyor yo'q qilingan.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1945-yil 10-apreldagi farmoni bilan nemis bosqinchilariga qarshi kurash janggohida qo'mondonlikning jangovar topshiriqlarini namunali bajarganligi va bunda ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun Sulgi Lutfullinga Lenin ordeni va "Oltin yulduz" medali bilan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. 1945-yilda 13-armiyaning kichik leytenantlar kursini tamomlagan. 1946-yildan kichik leytenant Sulgi Lutfullin zaxiraga chiqarildi.

Sulgi Lutfullin Andijonda yashab, 1964-yilda Samarcand savdo institutini tamomlagan. Shundan so'ng savdo tarmog'ida, jumladan, "Tekstilsavdo" bazasida uzoq muddat ombor mudiri bo'lib ishlagan. 1991-yilda vafot etgan" [8; 179-b.].

Andijon viloyati davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarni o'rganish natijasida Ikkinci jahon urushida fashizmga qarshi kurashda qatnashgan andijonlik rahbar xodimlarning ayrimlari haqida qisqacha ma'lumotlarni havola etamiz:

1924-yil 15-dekabrda Bاليqchi tumanida kambag'al oilada tug'ilgan Abdullaev Turg'unboy millati bo'yicha o'zbek, ma'lumotiga ko'ra 10-sinfni bitirgan, partiyasiz. Urushga borgunga qadar 1940-1942-yillar davomida Qo'shtepa qishloq soveti hududidagi 3-maktabda oddiy o'qituvchi bo'lib ishlagan.

1942-1943-yillarda Moskva shahridagi 197-polk Ichki ishlar vazirligi chegara qo'shinlari qismida, 1943-1944-yillarda Moskva shahridagi 174-polk Ichki ishlar vazirligi qo'shinlari qismida, 1944-yili Arxangelsk shahridagi 172-polk Ichki ishlar vazirligi qo'shinlari qismida, 1944-1945-yillar ichida Ichki ishlar vazirligi qoshidagi 220-polk, 3-Boltiqbo'y

chevara qo'shinlari qismida, 1945-1948-yillarda Kuril shahridagi 114-Ichki ishlar vazirligi soqchi otryadi qo'shinlari qismida, 1948-1949-yillarda 116-Ichki ishlar vazirligi soqchi otryadi qismida radiotelegrafist vazifasida xizmat qilgan, 1945-yil 6-sentyabrda banditlarga qarshi kurashda yarador bo'lgan. 1949-yilda harbiy xizmatdan bo'shatilgach, shu yildan Chinobod tuman ijroiya qo'mitasi Markaziy statistika boshqarmasida katta statist lavozimida ishlagan.

1946-yil 6-iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan "1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medali, 1948-yil 2-iyunda "Varshavani ozod qilganlik uchun" medali, 1949-yil 12-dekabrd "Sovet Armiyasi va Flotining 30 yilligi" medali bilan mukofotlangan".[9]

"1908-yil 21-oktyabrda Oltinko'l tumanida dehqon oilasida tug'ilgan Abdurahmonov Yoqubjon millati bo'yicha o'zbek, ma'lumotiga ko'ra o'rta.

1944-yil sentyabrda VKP(b) a'zosi bo'lgan. Urushga borgunga qadar 1939-1941-yillarda Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tuman ijroiya ko'mitasi ma'sul kotibi bo'lgan. 1941-yili Oltinko'l tumanidan armiyaga olingan. 1941-1943-yillarda shimoliy-g'arbiy 5-aviadesant janggohi diviziyyasida rota komandiri va 101-Kavkaz diviziya eskadrasida komandir lavozimida xizmat qilgan.

1943-yil yarador bo'lgan va harbiy xizmatdan bo'shatilgan. Urushdan qaytgach Oltinko'l tuman ijroiya qo'mitasi mas'ul kotibi lavozimida ishlagan.

Janglardagi jasorati va janggohlardagi malakali komandirligi uchun 2-darajali Vatan urushi ordeni, "1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medali, 1946-yilda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan urush yillaridagi mehnatlari uchun "1941-1945-yillarda Ulug' Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun" medali bilan mukofotlangan." [9]

"1917-yil 27-aprelda Andijon shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan Bakirov Obidjon millati bo'yicha o'zbek, ma'lumotiga ko'ra o'rta, 1941-yil iyunda VKP(b) a'zosi bo'lgan. Urushga borgunga qadar 1940-1941-yillarda Oyim tuman ijroiya qo'mitasi raisining o'rinosari lavozimida ishlagan. 1941-yili Andijon shahridan armiyaga olingan. 1941-1946-yillarda 304-diviziyaning 103-milliy armiyasida tashviqot va targ'ibot bo'limi yo'riqchisi vazifasida xizmat qilgan. 1946-yili harbiy xizmatdan bo'shatilgan. Urushdan qaytgach 1946-yildan Voroshilov tuman ijroiya qo'mitasi raisining o'rinosari lavozimida ishlagan.

1945-yil fevralda 103-milliy armiya tavsiyasiga ko'ra "Qizil Yulduz" ordeni bilan mukofotlangan." [9]

"1902-yil 15-iyunda Marhamat tumanida dehqon oilasida tug'ilgan Boychenko Ivan Antonovich, millati bo'yicha rus, ma'lumotiga ko'ra 5-sinf, partiyasiz. Urushga borgunga qadar 1938-1941-yillarda Marhamat tuman ijroiya qo'mitasi ma'sul kotibi, katta inspektor, raisning o'rinosari, savdo inspektori lavozimlarida ishlagan. 1941 yili Marhamat tumanidan armiyaga olingan. 1941-1943-yillarda janggohda bo'lgan, katta serjant komandir vzwod bo'lgan. 1942-yili Rjev shahrini fashistlardan ozod qilishda qattiq yarador bo'lgan 2-guruh nogironi. 1943-yilda harbiy xizmatdan bo'shatilgan. Urushdan qaytgach 1943-yildan Marhamat tuman harbiy komissarligi 2-qism alohida xo'jalik ishlari bo'limi boshlig'i, tuman ijroiya qo'mitasi rais o'rinosari lavozimlarida ishlagan.

Urush qatnashchisi sifatida hech qanday orden va medallar bilan mukofotlanmagan." [9]

"Asqarali Toshmuhamedov – 1906-yil 28-mart Toshkent shahrida batrak oilasida tug'ilgan, o'zbek, o'rta ma'lumotli, partiyasiz. 1938-1941-yillarda Izboskan tuman ijroiya

qo'mitasi xalq xo'jaligi hisobi inspeksiyasida uchastka nazoratchisi lavozimida ishlagan. 1942-yili Izboskan tumanidan armiyaga olingan. 1942-1945-yillarda 285-kavaleriya polkida oddiy jangchi, ombor mudiri keyincha aloqachi, yozuvchi(piser) bo'lib xizmat qilgan. 1945-yil yanvarda harbiy xizmatdan bo'shatilgan. Urushdan qaytgach 1945-yil 19-dekabrdan Izboskan tuman ijroiya qo'mitasi Markaziy statistika boshqarmasi tuman bo'limi nazoratchisi lavozimida ishlagan.

Urush qatnashchisi bo'lishiga qaramasdan hech qanday orden va medallar bilan mukofotlanmagan" [9].

"1926-yil, Andijon tumanida dehqon oilasida tug'ilgan Usmonov Raxmonning millati tojik, o'rta ma'lumotli, 1943-yil 1-iyulda VKP(b) a'zosi bo'lgan. 1939-1941-yillarda Paxtaobod tuman savdo bo'limi mudiri lavozimida ishlagan. 1941-yili Andijon viloyati harbiy komissariati tomonidan armiyaga olingan. 1941-yil 20-dekabrdan 1946-yil 15-avgustgacha Qizil Armiya xizmatida bo'lgan, Penza Artilleriya bilim yurtiga o'qishga qabul qilingan, 1942-yili bilim yurtini tamomlab leytenant unvoni olgan va 64-armiya, 157-o'qchi diviziyasining 120-artilleriya diviziyasiga xizmatga kelgan, 1943-yil batalon komandiri bo'lgan. 1944-1945-yillarda Polsha, Sharqiy Prussiyani fashizm ustidan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda ishtirok etgan, 1946-yilda harbiy xizmatdan bo'shatilgan. Urushdan qaytgach 1946-yilda Andijon viloyati texnik materiallar ta'minlash boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlagan.

1943-yil 15-avgustda diviziya komandiri tavsiyasi bilan harbiy jasorati va matonati uchun "Qizil Yulduz" ordeni, 1944-yil 28-fevralda janglardagi faolligi uchun diviziya komandiri tavsiyasi bilan 2-daraja Vatan urushi ordeni, 1945-yil 20-martda 1-daraja Vatan urushi ordeni, 1943-yil 15-iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan "Stalingrad mudofaasi uchun" medali, 1945-yil 18-avgustda "Varshavani ozod qilganlik uchun" medali, hamda 1946-yil 5-mayda "1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medali bilan mukofotlangan" [9]

"1920-yil Andijon shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan O'smonov Qobulning millati o'zbek, ma'lumoti tugallanmagan oliy, 1947-yil 15-mayda VKP(b) a'zosi bo'lgan. 1938-1939-yillarda Toshkent yuridik institutida o'qigan. 1939-yili o'z ixtiyori bilan Andijon shahridan armiyaga olingan. 1939-1944-yillarda 152-korpus og'ir artilleriya polki va Minskda 756-partizan otryadi 12-Stalin nomidagi partizanlar brigadasida jang qilgan. 1944-yili Minskda 35-bronotanklarni ta'mirlash zavodida texnik materiallar bilan ta'minlash bo'limi rahbar o'rinosari lavozimida ishlagan. 1941-yili yarador bo'lgan va 1946-yili harbiy xizmatdan bo'shatilgan. Urushdan qaytgach 1946-yili Andijon tuman ijroiya qo'mitasi kotibi lavozimida ishlagan.

1944-yil 19-sentyabrda partizan harakati janglaridagi jasurligi va faolligi uchun SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan Qizil Bayroq ordeni, 1-daraja Vatan urushi ordeni, "Hurmat Belgisi" ordeni bilan mukofotlangan" [9].

Xulosa. "Fashizm ustidan qozonilgan buyuk tarixiy g'alaba sovet xalqlarini va insoniyatni jumladan Yevropani fashizm asoratidan saqlab qoldi" [10; 701- b.] urush yillarida mashaqqatli mehnat va azob-uqubatdan boshqa narsani ko'rmagan odamlarning ko'pchiligi qayg'u-alam girdobida jon berdilar. Shunga o'xshash urush qatnashchilarining talay qismi yorug' kunlarni ko'rmadi. Shuni unutmaslik kerakki, ota-bobolarimiz misli ko'rilmagan azob-uqubatlar va talafotlar hisobiga butun insoniyat boshiga tushgan ofatni bartaraf qilishga ulkan hissa qo'shib, jahon tarixida o'chmas iz qoldirishdi.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning yuksak jasorati va matonati avlodlar uchun har doim o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Ozodlik va musaffo osmonimiz yo'lida o'z hayotini qurbon qilgan hamyurtlarimiz ruhi poklariga doimo hurmat bajo keltiramiz. Vatan ozodligi uchun kurashgan andijonlik rahbar xodimlarning mardlik va jasorati kelajak avlodga saboq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Штеменко С.М. Бош штаб уруш йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1969. - 464 б.
2. Тожиев Анвар. Иккинчи жаҳон урушини ким бошлаган? <https://ziyouz.uz/ilm-fan/tarix/tarix-tilsimi-ikkinchi-jahon-urushini-kim-boshla-gan/>.
3. Зияева Д. Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. -Тошкент: Шарқ, 2012. - 256 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 80 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига тайёргар-лик кўриш ва муносиб нишонлаш тўғрисида"ги 19 февраль 2025 йилдаги қарори.
5. Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. Андижон тарихидан лавҳалар. - Тошкент: Шарқ, 2013. - 592 б.
6. Тошболтаев Қ. Марҳамат: қишлоқларимиз ҳаётидан баҳс. - Андижон: Матбаа, 2007. - 200 б.
7. Раҳимов М. Андижонлик ўн баҳодир. - Андижон: Матбаа, 1995. - 32 б.
8. Ўзбекистонлик Иккинчи жаҳон уруши қаҳрамонлари. – Тошкент: - Sharq, 2020. - Б.412.
9. Ўзбекистон Республикаси Андижон вилоят Давлат архиви. 608-фонд, 1а- рўйхат - 78, 96, 164, 178, 557, 563, 601 - ишларнинг 1-3 варақлари.
10. Жуков Г.К. Воспоминания и размышления. - Москва: Новости, 1972. -C.702.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).